

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНАЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	144
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	149
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	



NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHIYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Menejment kafedrası o'qituvchi

Email: Ibrahimguraboev809@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatidagi kichik sanoat zonalarining 2020–2025-yillar davomidagi iqtisodiy salohiyati, ularning rivojlanish dinamikasi, investitsiya muhiti, bandlik ko'rsatkichlari va eksport qobiliyati tahlil qilingan. Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning institutsional, moliyaviy va infratuzilma muammolari aniqlangan hamda ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari viloyat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining tutgan o'rnini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonasi, iqtisodiy salohiyat, investitsiya, Namangan viloyati, sanoat klasteri, raqobatbardoshlik, bandlik, eksport.

Аннотация: В данной статье проанализированы экономический потенциал малых промышленных зон Наманганской области в период 2020–2025-годов, динамика их развития, инвестиционная среда, показатели занятости и экспортный потенциал. Выявлены институциональные, финансовые и инфраструктурные проблемы развития малых промышленных зон, а также разработаны научно обоснованные рекомендации по их устранению. Результаты исследования служат повышению роли малых промышленных зон в обеспечении устойчивого развития экономики региона.

Ключевые слова: малая промышленная зона, экономический потенциал, инвестиции, Наманганская область, промышленный кластер, конкурентоспособность, занятость, экспорт.

Abstract: This article analyzes the economic potential of small industrial zones in the Namangan region during 2020–2025, their development dynamics, investment environment, employment indicators, and export capacity. The study identifies institutional, financial, and infrastructural problems hindering the development of small industrial zones and develops scientifically grounded recommendations aimed at overcoming these challenges. The research findings contribute to enhancing the role of small industrial zones in ensuring the sustainable development of the regional economy.

Keywords: small industrial zone, economic potential, investment, Namangan region, industrial cluster, competitiveness, employment, export.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va mahalliy sanoat salohiyatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda kichik sanoat zonalarini (KSZ) muhim tarkibiy rol o'ynaydi — ular mahalliy tadbirkorlik subyektlarini ixtisoslashtirilgan infratuzilma bilan ta'minlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Namangan viloyati O'zbekistonning shimoliy-sharqida joylashgan bo'lib, Farg'ona vodiysining muhim sanoat va savdo markazlaridan birini tashkil etadi. 2020-yilda respublikada ro'yxatga olingan 50 ta KSZdan 7 tasi Namangan viloyatida joylashgan bo'lib, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 14 taga yetgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-iyundagi "Kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4363-son¹ qarori

1 <https://lex.uz/uz/docs/-4384718>



va 2023-yil 12-oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-son² Farmoni normativ hujjatlari asosida KSZlarni rivojlantirish uchun yangi mexanizmlar ishga tushirildi.

Namangan viloyatidagi KSZlarni o‘rganishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: birinchidan, viloyat Toshkent va Farg‘onadan keyin uchinchi o‘rinda turadigan sanoat ishlab chiqarish hajmiga ega bo‘lsa-da, eksport ulushi nisbatan past; ikkinchidan, mehnat resurslari zichligi yuqori (viloyat aholisi 2025-yilda 3,8 million kishini tashkil etadi), lekin rasmiy bandlik darajasi respublika o‘rtachasidan past; uchinchidan, investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali joylashtirish mexanizmlari takomillashtirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — Namangan viloyatidagi kichik sanoat zonalarining iqtisodiy salohiyatini 2020–2025-yillar kesimida kompleks baholash, asosiy to‘siq omillarini aniqlash va samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda viloyat KSZlari uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘p mezonli samaradorlik indeksi taklif etilgan hamda klaster tahlili asosida zonalarining to‘rtta toifasi aniqlangan. Начало формы

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat zonalarini va iqtisodiy zonalarga doir xalqaro ilmiy adabiyotlar ko‘rib chiqilganda, Farole va Akinci (2011), Wang (2013) kabi tadqiqotchilarning asarlarida iqtisodiy zonalarni nafaqat ishlab chiqarish markazlari, balki texnologiya o‘tkazish va institutsional islohot poligonlari sifatida talqin etilishi ko‘zga tashlanadi. Farole va Akinci tomonidan 100 dan ziyod mamlakatdagi 3 500 ta sanoat zonasi o‘rganilgan bo‘lib, muvaffaqiyatli zonalarni uchun yaxshi joylashuv geografiasini, taraqqiy etgan infratuzilma, oqilona boshqaruv mexanizmi va davlat-xususiy sheriklikning muhimligi alohida ta’kidlangan.

MDH va Markaziy Osiyo kontekstida Ostonaqulova, Yusupov va Xoliqov, Razzaqov tadqiqotlari o‘zbek KSZlarining xususiyatlarini tahlil qilgan. Bu ishlar KSZlarning asosiy muammolari sifatida bojxona tartibotining murakkabligi, moliyalashtirishga kirish imkoniyatining chegaralanganligi va malakali kadrlar tanqisligini ko‘rsatadi. Biroq Namangan viloyati uchun maxsus empirik tadqiqotlar yetarli emas — ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur tadqiqotning asosiy motivatsiyasidir.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasini ko‘rib chiqsak, Porterning raqobatdosh ustunlik “olmos” modeli, Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi va Rodrikning sanoat siyosati tavsiyalari asosiy nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek akademik maktabida esa Qodirov va Toshmatovlarning ishlarida mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni baholashning mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan metodikasi keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, KSZlarning iqtisodiy samaradorligi faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy natijalar — bandlik sifati, mahalliy biznesning ulushi, texnologik imkoniyatlar bilan birgalikda baholanishi lozim. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqotning metodologik asosini belgilaydi va tahlilning ko‘p o‘lchovli tabiatini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi: (1) statistik tahlil — O‘zbekiston Statistika agentligi va Namangan viloyati iqtisodiyot boshqarmasining 2020–2025-yillar rasmiy ma’lumotlari asosida; (2) solishtirma tahlil — Namangan viloyatidagi KSZlarni Farg‘ona va Andijon viloyatlari analoglari bilan qiyoslash; (3) so‘rov tadqiqoti — 2024-yilning noyabr-dekabr oylari davomida 14 ta KSZning 87 ta korxonalar rahbari va 230 nafar ishchi bilan o‘tkazilgan so‘rov; (4) ekspert bahosi — viloyat hukumati, Tadbirkorlar palatasi va sanoat zonalarini boshqaruv vakillari bilan 12 ta chuqur intervyu; (5) GIS-tahlil — zonalarining joylashuv afzalliklari va infratuzilma holati xarita tahlili.

Ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining “Sanoat” to‘plami (2020–2025), Namangan viloyati Sanoat va investitsiyalar boshqarmasining yillik hisobotlari, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi axborot tizimi (invest.gov.uz) va Xalqaro Moliya Korporatsiyasining (IFC) O‘zbekiston bo‘yicha sanoat zonalarini diagnostik hisoboti (2023) dan foydalanildi. Tadqiqotning cheklovlari: ba’zi KSZlar bo‘yicha 2020–2021-yillar ma’lumotlari to‘liq bo‘lmaganligi sababli ushbu yillar uchun interpolatsiya usuli qo‘llanilgan. COVID-19 pandemiyasining 2020–2021-yillardagi ta’siri alohida omil sifatida hisobga olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida 2025-yilga ko‘ra 14 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Geografik jihatdan ular viloyatning 8 ta tumani va 2 ta shahar hududida joylashgan. Ixtisoslashuv sohasiga ko‘ra: to‘qimachilik va

2 <https://lex.uz/mact/-6633676>



tikuvchilik (5 ta zona), oziq-ovqat sanoati (3 ta), qurilish materiallari (2 ta), metallga ishlov berish (2 ta), kimyo va plastmassa (1 ta), aralash (1 ta). Ularning umumiy maydonlari 2020-yildagi 312 gektardan 2025-yilga kelib 810 gektarga oshgan (1-jadval).

1-jadval.

Namangan viloyatidagi KSZlarning asosiy ko'rsatkichlari³ (2020-2025)

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024	2025
KSZ soni (ta)	7	8	10	12	13	14
Jami maydon (ga)	312	380	490	640	720	810
Ro'yxatdan o'tgan korxonalar (ta)	148	187	256	341	412	478
Faol korxonalar ulushi (%)	74	69	78	83	87	89
Jami investitsiya (mlrd so'm)	890	1 240	2 180	3 450	4 820	6 310
Yaratilgan ish o'rinlari (ming kishi)	5.2	6.8	9.4	13.2	17.6	21.8
Eksport hajmi (mln AQSH \$)	28.4	31.7	47.2	69.8	94.3	118.6
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)	1 240	1 680	2 960	4 870	6 940	9 120

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida Namangan viloyatidagi KSZlarda investitsiyalar hajmi 7,1 barobarga, ish o'rinlari soni 4,2 barobarga, eksport hajmi 4,2 barobarga ko'paygan. Bu respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan (mos ravishda 5,4; 3,1 va 3,7 barobar) yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biroq mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha viloyat hali ham Farg'ona va Andijon viloyatlaridan orqada qolmoqda. 2021-yilda faol korxonalar ulushining 74 foizdan 69 foizga tushishi COVID-19 pandemiyasi oqibatlarini bilan bevosita bog'liq.

Investitsiya salohiyatini baholashda uchta asosiy ko'rsatkich ko'rib chiqildi: investitsiya zichligi (bir korxonaga to'g'ri keladigan sarmoya), sarmoyaning qaytarilish muddati va xorijiy investitsiyalar ulushi. 2020-yilda bir korxonaga to'g'ri keladigan o'rtacha investitsiya 6,01 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 13,2 mlrd so'mga yetgan — o'sish 2,2 barobar. Mazkur tendensiya investorlar ishonchining oshayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda: 2020-yilda umumiy investitsiyaning 8,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 14,7 foizga yetgan. Solishtirish uchun: Farg'ona viloyatidagi KSZlarda bu ko'rsatkich 22,4 foiz, Toshkent viloyatida 31,8 foizni tashkil etadi. Namangan viloyatining investitsion jozibadorligini yanada oshirish uchun logistika aloqalarini kengaytirish, ingliz tilidagi biznes kommunikatsiyalarni rivojlantirish hamda yirik hajmli yer uchastkalari infratuzilmasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

KSZlarda band bo'lgan ishchilarning ijtimoiy-demografik tahlili shuni ko'rsatdiki, 2025-yilda umumiy 21 800 ish o'rning 61,4 foizini ayollar egallaydi — bu to'qimachilik va tikuvchilik korxonalarining ustunligi bilan izohlanadi. Yosh tarkibiga ko'ra: 18–30 yosh guruhi — 43 foiz, 31–45 yosh guruhi — 38 foiz, 46 va undan yuqori yosh guruhi — 19 foiz. Mutaxassislik darajasiga ko'ra: oliy ta'limli — 18,3 foiz, o'rta maxsus — 34,7 foiz, umumiy o'rta ta'limli — 47 foiz.

So'rov natijalariga ko'ra, KSZ korxonalaridagi o'rtacha oylik ish haqi 2025-yilda 2 840 000 so'mni tashkil etgan, bu viloyat o'rtachasidan (2 210 000 so'm) 28,5 foiz yuqori. Biroq respublika sanoat korxonalari o'rtachasiga (3 120 000 so'm) nisbatan 9 foiz past darajada qolmoqda. Bu holat malakali kadrlarning viloyat KSZlaridan Toshkent shahriga chiqib ketish tendensiyasini keltirib chiqarmoqda: so'rovda qatnashgan 230 ishchidan 31 foizi keyingi 2 yil ichida ish joyini o'zgartirish niyatida ekanligini bildirdi (2-jadval).

2-jadval. KSZlardan eksport qilingan mahsulotlar tarkibi⁴ (2023-2025, %)

Mahsulot guruhi	2023 (%)	2024 (%)	2025 (%)
To'qimachilik va tikuvchilik	44.2	41.8	39.6
Oziq-ovqat mahsulotlari	21.7	23.4	24.8
Qurilish materiallari	14.3	15.1	16.2
Metallga ishlov berish	11.8	12.6	11.9
Kimyo va plastmassa	5.4	5.2	5.7
Boshqa mahsulotlar	2.6	1.9	1.8
JAMI (mln AQSH \$)	69.8	94.3	118.6

3 Manba: Namangan viloyati Sanoat va investitsiyalar boshqarmasi, O'zbekiston Statistika agentligi, 2025.

4 Manba: O'zbekiston Statistika agentligi, 2025.

Eksport geografiyasiga ko'ra, 2025-yilda asosiy bozorlar quyidagicha taqsimlangan: Rossiya — 34,2 foiz, Qozog'iston — 18,7 foiz, Xitoy — 12,4 foiz, Yevropa Ittifoqi — 9,8 foiz, Afg'oniston va Pokiston — 8,3 foiz, boshqa mamlakatlar — 16,6 foiz. E'tiborli jihati shundaki, 2020-yilda YI mamlakatlariga eksport ulushi atigi 3,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 9,8 foizga yetgani — bozorlar diversifikatsiyasida ijobiy siljish mavjudligini ko'rsatadi. To'qimachilik mahsulotlari ulushining qisqarishi (44,2 foizdan 39,6 foizga) sanoat tarkibining asta-sekin murakkablashib borayotganini anglatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rov va ekspert intervyulari natijasida KSZlarning iqtisodiy salohiyatini cheklayotgan beshta asosiy muammo guruhi aniqlandi. Muammolar ta'sir kuchiga ko'ra 1 dan 5 ballgacha baholandi (3-jadval).

3-jadval. KSZlardagi muammolar va ularning korxonalar faoliyatiga ta'siri⁵ (ekspertlar bahosi, 2024)

Muammo guruhi	Ta'sir kuchi (1-5)	Uchraydigan KSZlar ulushi (%)
Moliyalashtirishga kirish imkoniyatining cheklanganligi	4.6	78.6
Muhandislik infratuzilmasining etarli emasligi	4.2	64.3
Malakali kadrlar tanqisligi	3.9	71.4
Ma'muriy to'siqlar va byurokratiya	3.7	57.1
Xomashyo ta'minotidagi uzilishlar	3.4	50.0
Raqamli texnologiyalar joriy etilishining sekinligi	3.2	64.3
Bozor va marketing imkoniyatlarining chegaralanganligi	3.1	71.4

Moliyalashtirishdagi muammolar eng og'ir to'siq sifatida baholandi (5 dan 4,6 ball). So'rovda qatnashgan korxonalarining 68 foizi bank kreditlaridan foydalana olmasligini yoki faqat qisman foydalana olishini bildirdi. Asosiy sabab: garov ta'minotining yetarli emasligi va kredit tarixining yo'qligi. Qiziqarli holat shundaki, KSZdagi mulk huquqi ko'pincha ijara ko'rinishida bo'lgani uchun korxonalar o'z mulkini garov sifatida ko'rsata olmaydi — bu muammoni maxsus kafolat mexanizmlari orqali hal etish zarur.

Infratuzilma muammolari 2020–2022-yillarda ayniqsa keskin bo'lgan: o'sha davrda zonalarining 43 foizida gaz ta'minoti uzluksiz emas, 29 foizida kuchlanish tebranishlari ishlab chiqarishga zarar yetkazgan, 57 foizida ichki yo'llar qoniqarsiz holatda bo'lgan. 2023–2025-yillarda hukumat dasturlari doirasida 4,2 mlrd so'mlik infratuzilma investitsiyalari yo'naltirilganligi holat yaxshilanishiga sabab bo'ldi, ammo to'liq hal etilmadi. Raqamli texnologiyalar bo'yicha: 2025-yilga ko'ra faqat 3 ta KSZda umumiy raqamli logistika tizimi mavjud, qolgan 11 tasida hujjat aylanishi asosan qog'oz shaklida amalga oshiriladi.

Birinchi tavsiya — KSZ korxonalarini uchun maxsus kafolat jamg'armasi tashkil etish. Xalqaro amaliyotda keng tarqalgan ushbu mexanizm korxonalar kredit garovini 50–70 foizgacha ta'minlashga imkon beradi. Namangan viloyatida bunday jamg'armaning boshlang'ich kapitali 50 mlrd so'm atrofida bo'lsa, jami 150–200 mlrd so'mlik kredit portfelini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bundan tashqari, kichik innovatsion korxonalar uchun kvazigrant (qaytarib beriladigan grant) tizimini joriy etish tavsiya etiladi — bu Janubiy Koreya SMBA (Small and Medium Business Administration) tajribasiga asoslangan yondashuv.

“Aqlli zona” (Smart Zone) konsepsiyasini joriy etish tavsiya etiladi: har bir KSZda umumiy energiya monitoring tizimi, real vaqtda kommunal xizmatlar monitoringi, bitta “smart” kirish nazorati va umumiy logistika platformasini o'rnatish. Bunday investitsiya 1 ta zona uchun 3,5–5 mlrd so'm miqdorida bo'lib, 3–4 yil ichida qoplanishi mumkin — chunki energiya xarajatlarini 18–22 foiz kamaytirish imkoni paydo bo'ladi. Xitoyning Suzhou sanoat zonasi va Malayziyaning Iskandar iqtisodiy zonasi shu yondashuv natijasida ishlab chiqarish quvvatini 35–40 foizga oshirganligini tajriba ko'rsatmoqda.

Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan davlat universiteti bazasida KSZlar bilan kelishuv asosida ikki tomonlama ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish zarur. Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasida ishlangan ushbu yondashuv korxonalarining real ehtiyojlariga asoslangan mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Muayyan hisob-kitoblarga ko'ra, ikki tomonlama ta'lim dasturi orqali tayyorlangan bitiruvchilarning 78 foizi birinchi ish joyini o'z ixtisosligi bo'yicha topadi (an'anaviy ta'limda bu ko'rsatkich 41 foiz). Har bir KSZda innovatsiya yordam markazi yaratish, korxonalarini texnologiya o'tkazish dasturlari va intellektual mulk huquqini himoya qilishda qo'llab-quvvatlash ham tavsiya etiladi.

Bitta kontakt tamoyili asosida “One-Stop-Shop” xizmati — barcha ruxsatnomalar va hujjatlarni bir joyda rasmiylashtirishni ta'minlash — ayniqsa xorijiy investorlar uchun muhimdir. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovlarda 81 foiz tadbirkor ushbu o'zgarish investitsion muhitni sezilarli yaxshilashini ta'kidladi. Gruziya va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, “bitta kontakt” tizimi ma'muriy xarajatlarni 40–60 foiz kamaytiradi va yangi

5 Manba: muallif ishlanmasi



korxonalar registratsiyasini tezlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, Namangan viloyatidagi kichik sanoat zonalari 2020–2025-yillar davomida sezilarli miqdoriy o'sishga erishdi: investitsiyalar 7,1 barobar, bandlik 4,2 barobar, eksport 4,2 barobar ko'paydi. Tadqiqotda aniqlangan asosiy muammo — KSZ salohiyatining moliyaviy, infratuzilma va institutsional to'siqlar sababli to'liq ro'yobga chiqmasligi. Taklif etilayotgan to'rtta yo'nalish: kafolat jamg'armasi yaratish, "aqlli zona" konsepsiyasini joriy etish, ikki tomonlama ta'lim dasturlari va "bitta kontakt" boshqaruv tizimi — ushbu muammolarni tizimli hal etishga mo'ljallangan va xalqaro amaliyot bilan asoslangan.

Agar tavsiyalar 2026–2028-yillar mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, quyidagi natijalar prognoz qilinadi: KSZ korxonalar soni 2028-yilga qadar 650 taga, ish o'rinlari 30 000 taga, eksport 180 mln AQSH dollariga yetishi, xorijiy investitsiyalar ulushi 22–25 foiz darajasiga chiqishi mumkin. Bu hisob-kitoblar Janubiy Koreya va Malayziya KSZlari rivojlanishining dastlabki bosqichlari bilan qiyosiy tahlil asosida olingan. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun: KSZlarning mahalliy yetkazib beruvchilar tarmog'iga ta'siri, xotin-qizlar bandligining sifati va ijtimoiy oqibatlari, shuningdek, iqlim o'zgarishiga barqaror bo'lgan "yashil" zona konsepsiyasining joriy etilish imkoniyatlari dolzarb mavzular sifatida ko'rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 17.02.2020-yildagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RB-604-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-4737511>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Hududiy statistika to'plamlari 2020–2025. Toshkent, 2025.
3. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York, 1990.
4. UNIDO. Industrial Parks: Guidelines for Development and Operation. Vienna, 2019.
5. OECD. Regional Development and Industrial Clusters. Paris, 2022.
6. EBRD. Small Business Finance Report: Central Asia. London, 2024.
7. Namangan viloyat hokimligi. KSZ faoliyati to'g'risida yillik hisobotlar (2020–2025). Namangan, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100